


2019 yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 823,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibida savdo xizmatlari 30,5 foizni, transport xizmatlari 26,2 foizni, moliyaviy xizmatlar 12,8 foizni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,5 foizni va boshqa xizmat turlari 25,0 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,3 mlrd. so'mga oshdi.

**2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	823,7	107,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	45,5	97,9
Moliyaviy xizmatlar	105,1	162,7
Transport xizmatlari	216,1	102,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	199,7	101,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	22,3	102,0
Savdo xizmatlari	251,5	102,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	23,9	100,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	23,6	107,5
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	12,0	102,9
Ijara xizmatlari	30,0	100,2
Kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	25,3	101,2
Shaxsiy xizmatlar	37,1	96,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7,5	101,7
Boshqa xizmatlar	23,8	99,1

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlarda (162,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (107,5 %), sog'linqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (102,9 %), transport xizmatlarida (102,7 %) hamda savdo xizmatlarida (102,7 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



O'tgan yilning shu davriga nisbatan shaxsiy xizmatlarda (-3,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (-2,1 %) hamda boshqa xizmatlarda (-0,9 %) kamayish kuzatildi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 22,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan o'sish 102,0 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,7 % ga yetdi.

2019 yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 79,3 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlarning ulushi 20,7 % ga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 77,3 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiylajmiy savdo xizmatlari hajmidagi ulushi 12,6 % ga yetdi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 10,1 % ni egallaydi.

Pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar moliyaviy xizmatlar hajmini o'sishiga turki bo'lmoqda.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 105,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 162,7 % ni tashkil etdi.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,4 % ni tashkil qilmoqda.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 199,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 1,2 % ga oshdi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 71,8 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 28,2 % ni tashkil etdi.

Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarurdir.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hokimiyat va tadbirkorlik bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtiradigan hamda tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2019 yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 45,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,8 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 219,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

0371-230-85-35